

SAFO MATJON
UMIDA SHERMATOVA
ZUHRA SHERMATOVA

BOLALAR ADABIYOTI

DARSLIK - XRESTOMATIYA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SAFO MATJON
UMIDA SHERMATOVA
ZUHRA SHERMATOVA**

BOLALAR ADABIYOTI

(DARSLIK - XRESTOMATIYA)

Toshkent
«ZEBO PRINT»
2023

UO'K 821-93;373
KBK 83.8;74.202
M-73

SAFO MATJON, UMIDA SHERMATOVA, ZUHRA SHERMATOVA.
BOLALAR ADABIYOTI [DARSLIK - XRESTOMATIYA]: – Toshkent.
Zebo Print – 2023.- 368 bet.

Mas'ul muharrir:

Taqrizchilar:

Ushbu darslik-xrestomatiya mualliflarning ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomidagi izlanishlari mahsuli sifatida pedagogika oliy o'quv yurtlarining 5111700 – "Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish hamda 5111900 – 'Maktabgacha ta'lim' yo'nalishi talabalariga bolalar adabiyotining shakllanish tarixi, maqsad va vazifalari, taraqqiyot bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan "Bolalar adabiyoti" dasturi asosida muayyan darajada saboq berishga mo'ljallangan. Undan pedagogika-psixologiya va gumanitar fanlar fakultetlari talabalari, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-8555-9-5

KIRISH

So'nggi yillar oliy ta'lim tizimida "Bolalar' adabiyoti" fani "Ona tili va adabiyot", "Bolalar adabiyoti va folklor" kabi qo'shma fanlar tarkibida qisqartishlar hisobiga o'rganib kelinmoqda. Bizningcha, "Bolalar adabiyoti" "Maktabgacha ta'lim", "Boshlang'ich ta'lim", "Defektologiya" yo'nalishlarida 1-blok tarkibida alohida fan sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Negaki, u maxsus ixtisosliklar asosida "kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi" (SH.M.Mirziyoyev. 1-tom, 286-bet) ijrosini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida qayd qilingan "bir-biribilanuzviy bog'liq bo'lmagan fanlarasosida tuzilgan o'quv dasturidan bosqichma-bosqich voz kechish va o'quv fanlari sonini optimallashtirish"ga doir ko'rsatmasi bu borada muhim dasturilamal bo'lishi lozim. Qolaversa, mazkur "Qaror"da "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" talabining qo'yilishi ham ushbu muammoning ijobiy yechimini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Quron"ning dastlabki oyati "Iqra"ning boshlanishidan ma'lumki, inson ma'naviyati va ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq kitobxonlik borasida garchi asrlar osha boy tajriba to'plangan bo'lsa-da, uning milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari yuz tutgan Yangi O'zbekiston rivojida davlat ahamiyatiga molik ta'lim-tarbiya masalasi sifatida kun tartibiga qo'yilishi MTM va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga", boshlang'ich

ta'lim "ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik... asoslarini shakllantirishga" qaratilishi ham yosh avlodni kitobxonlik ko'nikmalarini uzluksiz ta'limning ilk bosqichi – maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab tarkib toptirishni taqozo etadiki, bu borada bolalar adabiyoti katta imkoniyatga ega.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishida "... ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish; ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash" masalasining ta'kidlab ko'rsatilishiga doir vazifalar yechimida bolalar adabiyoti muhim o'rin tutadi.

"Bolalar adabiyoti" deb nomlangan ushbu darslik-xrestomatiya ana shu ehtiyoj tufayli yuzaga kelgandir.